

# HTMLda ro'yxatlar bilan ishlash (markerlar)

**Unordered List (UL)** - Tartib raqamlarsiz beriladigan ro'yhat.

**Ordered List (OL)** - Tartib raqamlar bilan beriladigan ro'yhat.

**Definition List (DL)** - Ta'rif beriladigan ro'yhat.

## <ul>

<ul type="disc"> Deyarli hammamiz "disc" so'zini tushunamiz, yuzaga ega dumaloq shakldir, geometriyada buni doira deymiz.

<ul type="circle"> "circle" so'zi esa aylana demakdir.

<ul type="square"> "square" to'rtburchak hisoblanadi.

## <ol>

<ol type="1"> Oddiy son tartibidagi ro'yhat (1, 2, 3, 4, ...)

<ol type="I"> Rim raqamlari tartibidagi ro'yhat (I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X, ...) I - shift yordamida "i" tugma (Isroildagi), V- shift yordamida "v" tugma (Valijondagi) va X - shift yordamida "x" tugma (Xabardagi).

<ol type="i"> Bu esa yuqorida berilgan Rim raqamlarining kichik holatidir (i, ii, iii, iv, v, vi, vii, viii, ix, x, ...)

<ol type="a"> Bu harflar tartibi faqat kichik lotin harflarida (a, b, c, d, e, f, g, ...)

<ol type="A"> Bu harflar tartibi esa Lotin alifbosining katta harflaridan boshlanadi (A, B, C, D, E, F, G, ...)

## <dl>

Uchunchi ro'yhat turimiz <dl> tagiga ega, u shunchaki ro'yhatni tartib raqmsiz tuzadi, va </dl> tagi ro'yhatimizni yopadi. Bu ro'yhat turining qo'shimcha tag lari biroz farqli, yani ("list item") <li> bu ro'yhat turimizni yaratishda ishtirok etmidi. Uning o'rniga <dt> va <dd> lar ishtirok etishadi.

<dl> - Definition List deganidir, o'qilishi "definishn list" tarjimasi ta'rif ro'yhati tuzish deganidir, yopilishi </dl>

<dt> - Definition Term deganidir, o'qilishi "definishn term" tarjimasi ta'rif termini degani, yopilishi </dt>.

<dd> - Definition Description deganidir, o'qilishi "definishn deskripsn", tarjimasi ta'rif tasviri demakdir, yopilishi </dd>.

**IZOH:** Yuqoridagi qizil fon bilan yozilgan qismni o'rganish majburiy emas (fakultativ).